

O'RTA YIRINGLI OTITNI DAVOLASH

Davronova Gulrux Baxtiyorovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti

1 son Otorinolaringologiya kafedrasida v.b.b. docenti

Davronova.gulrux@mail.ru

Tashboev Qaxramon Jumaniyoz O'g'li

SamMU pediatriya fakulteti 5 kurs talabasi

toshboevqaxramon462@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada otit kasalligi va o'rta yiringli otit kasalligini kelib chiqishi oqibatlarini va davolash usullari haqida soz boradi.

Kalit so'zlar. Otit, o'rta otit, quloq, kasallik, eshitish, miya, parda, yallig'lanish, burun to'sigi.

Otit — o'rta quloqning yallig'lanishi bo'lib, bu kasallik, xususan, yosh bolalarda uchrab, bir muncha og'ir kechadi, quloq qattiq og'riydi, harorat ko'tariladi, eshitishi ancha pasayadi, miya va uning pardasiga asorat berishi mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, barcha otorinolaringologik kasalliklarning 30% otitning o'tkir shaklidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalarga qaraganda bu kasallikka ko'proq duchor bo'lishadi. Uch yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% o'rta otit bilan hech bo'lmaganda bir marta kasallanishgan.

Bunga ko'pincha yuqori nafas yo'llari yallig'lanishi bilan kechadigan yuqumli kasalliklar: gripp, qizamiq, skarlatina va boshqalar sabab bo'ladi. Bunda yallig'lanish jarayoni burun-halqumdan eshitish nayi orqali nog'ora bo'shlig'iga o'tadi, hosil bo'lgan yiring, ba'zan quloq pardasini teshib, tashqi eshituv yo'lidan oqib chiqadi. O'rta quloq yallig'lanishi paydo bo'lishida (ayniqsa, bolalarda) adenoidlar, polip, burun to'sig'ining qiyshayishi muhim o'rin tutadi.

Eshitish organini yallig'lantirib, otitga olib keladigan mikroblarga:

- Pnevmonokokklar;
- Streptokokklar;
- Stafilokokklar;
- Gemofil tayoqchalari va boshqa mikroorganizmlar kiradi.

Har qanday quloq yallig'lanishi o'ta xavflidir va kasallik alomatlarini (quyida ta'riflangan) kuzatilganda shifokorga murojaat etishingiz kerak.

O'rta o'tkir otit mavjudligini bildiradigan alomatlar quyidagilardan iborat:

- Quloqdagi kuchli og'riq;
- Isitma;
- 1-3 kundan so'ng quloq kanalidan yiring oqishi.

Yiring chiqib ketganidan keyin bemorning ahvoli yaxshilanadi, tana harorati pasayadi, og'riq sezilarli darajada kamayadi yoki yo'qoladi.

Yiring quloq nog'ora pardadagi hosil bo'lgan tirqishdan chiqadi. Kasallikning bunday natijasi ijobiy hisoblanadi va to'g'ri davolash bilan quloq nog'ora pardasi eshitish qobiliyatiga ta'sir qilmasdan asta-sekin tiklanadi. Kasallikning salbiy rivojlanishi bu yiringning chiqib ketishi iloji yo'qligi va bu yiringning bosh suyagi ichiga tarqalib ketishi mumkinligi bilan xavflidir. Bunday otit menengitga, shuningdek miya abstsessgia sabab bo'la oladi. Bunday daxshatli oqibatlarining oldini olish uchun otitning birinchi alomatlari bilan maslahat va davolanish uchun otorinolaringologga murojaat qiling.

Yallig'lanishning joylashuviga qarab tasniflanishi:

- Tashqi otit;
- O'rta otit;
- Ichki otit.

Ko'pincha tashqi otit kasalligi suzuvchilarda rivojlanadi. Yallig'lanish tashqi quloq yo'lining yoki quloq suprasining shikastlanishi tufayli boshlanadi. Himoya qavatining buzilishi o'sha joyga patogen mikroorganizmlarning tushishiga va ko'payishiga olib keladi, keyin bu joyda furunkul hosil bo'ladi.

Agar tegishli davolash amalga oshirilmasa, tashqi otit og'ir shaklga o'tadi va yallig'lanish quloq yon paylari va suyakka o'tadi. Bunday hollarda bemorda kuchli lo'qillovchi og'riq, quloqning shishishi va tana haroratning o'rtacha darajada ko'tarilishi kabi alomatlar kuzatiladi. O'rta otitda yallig'lanish jarayoni quloqning nog'ora pardadan keyin joylashgan o'rta quloqning havo yo'li bo'shlig'iga tarqaladi: nog'ora bo'shlig'i, eshitish naychasi va mastoid o'simtaga.

O'rta quloqning o'tkir kataral otitlari O'RVI (shamollash) ning asorati sifatida ham shakllanishi mumkin, bu patogen infeksiyaning nog'ora bo'shlig'iga kirganidan so'ng yuzaga keladi. Dastlabki bosqichda eshitish darajasi pasayishi, quloqda shovqin eshivilishi mumkin, ammo harorat normal yoki biroz ko'tarilgan bo'ladi. Agar bu alomatlar e'tiborga olinmasa, unda kataral otit yanada rivojlanib, birdaniga kuchli isitma va quloqdagi og'riq bilan namoyon bo'ladi. Og'riq keyinchalik ko'zga, bo'yinga, tomoqqa yoki tishlarga tarqalishi mumkin. Bunday otitni davolash uchun faqatgina infeksiyani bartaraf etish kerak, buning uchun esa tezda shifokorga murojaat qilish kerak.

O'rta quloqning o'tkir yiringli otiti — bu kasallikning o'tib ketgan kataral shaklidir. Kasallik nog'ora pardasining yorilishi va yiringning chiqib ketishi, keyin esa tana haroratining pasayishi bilan kechadi. Davolash infeksiyaga qarshi kurashish bilan birga, faqatgina shifokor tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan quloqdan doimiy ravishda yiringni chiqarib tashlashni o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, yiring har doim o'z-o'zidan chiqib keta olmaydi. Agar quloqning nog'ora pardasi juda mustahkam bo'lsa, uni teshish uchun jarrohlik talab qilinadi. Ushbu amaliyot «parasentez» deb ataladi va mahalliy og'riqsizlantirish yordamida amalga oshiriladi: eng qulay nuqtada maxsus vosita bilan teshik hosil qilinadi va yiring butunlay chiqib ketadi.

Yiring chiqib ketgach, nog'ora parda qayta tiklanadi va eshitish sifati buzilmaydi. O'rta quloqdagi o'tkir otit davolanmasa, yiring bosh suyagi ichiga tarqaladi. Natijada ichki otit rivojlanadi, u vestibulyar apparatga ta'sir qiladi, bu miyaning abstsessiga va hech bo'lmaganda qisman yoki to'liq eshitish qobiliyatini yo'qotilishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun otitning dastlabki alomatlari kuzatilganda quloqqa hech narsa tomizmasdan yoki spirtli yoki boshqa antiseptiklar bilan tampon qo'ymasdan, darhol shifokorga borishingiz kerak!

O'rta quloq o'tkir yallig'lanishida bemorning qulog'i, boshi qattiq og'riydi va eshitish og'irlashadi, ayrim hollarda harorat 37-38°C darajaga ko'tariladi. Davoni shifokor tayinlaydi. O'rta quloq yallig'lanishida shifokor tavsiyasi bo'yicha bozillama qilinadi, u og'riqni pasaytiradi va nog'ora bo'shlig'idagi yallig'lanishning surilib ketishiga imkon beradi. Bozillamani quloq suprasiga emas, balki uning yon-atrofiga quyiladi. Buning uchun bir necha qavat dokani suvda yoki teng barobar spirt qo'shilgan suvda ho'llab, mato o'rtasini qirqib, quloq suprasiga kiygiziladi. Bozillamani har 4 soatda, bolalarda esa terisi kuyib qolmasligi uchun har ikki-uch soatda almashtirib turish lozim. Teng barobar suv qo'shilgan spirtli va quruq-issiq bozillama navbatma-navbat kuyib turiladi. O'rta quloqni davolashda ilitilgan suyuq dorilarni (qaynatilgan) pipetka bilan tashqi yo'lga qo'yish yaxshi naf beradi. Buning uchun suyuq dori solingan shishacha 2-3 daqiqa ilik suvga kuyib quyiladi. Bemor sog' qulog'ini bosib, yonboshlab yotadi, quloqqa quyilgan dori 10-15 daqiqa turishi kerak.

Quloqlarda noqulay his-tuyg'ular paydo bo'lganidan so'ng, hoh vaqti-vaqti bilan quloqlarning bitishi yoki og'rig'i bo'lsin, darhol to'g'ri davolanish uchun shifokor bilan maslahatlashish kerak. Aks holda, o'tkir otit surunkali shaklga o'tishi va nog'ora pardada chandiqlar, yupqalıklar, botiqlar qoldirishi mumkin, bu esa tez-tez yallig'lanishga duchor bo'lishga sababchi

bo'lishi mumkin. Agar quloq og'riqning o'zidayoq shifokorga murojaat eta olish imkoni bo'lmasa, siz qila oladigan yagona narsa bu og'riqni pasaytirishdir. Antigistamin preparatlar og'riq qoldirishga yordam berishi mumkin (ular tufayli quloq ichida bosim pasayadi va og'riq kamayadi). Agar og'riq juda kuchli bo'lsa, og'riq qoldiruvchi dorilar qabul qilish yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Солдатов И.Б. Лекции по оториноларингологии. М. Медгиз, 1990.
2. Мо'минов А.И. quloq tomoq va burun kasalliklari. Tashkent. 1994.
3. Vergison A, Dagan R, Arguedas A. Otitis media and its consequences: beyond the earache, *Lancet Infect. Dis.*, 2010, 10, 3(10): 195-203.
4. Burrows HL, Blackwood RA, Cooke JM. Otitis Media Guideline Team. University of Michigan Health System otitis media guideline. 2013. <http://www.med.umich.edu/1info/fhp/practice1guides/om/OM.pdf>.
5. Liese JG, Silfverdal SA, Giaquinto C. Incidence and clinical presentation of acute otitis media in children aged